

Date: 3rd February-2026

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TUPROQDA YASHOVCHI JONZOTLAR"
MAVZUSINI 5E TA'LIM MODELI ASOSIDA O'QITISH**

Nabijonova Bibixonim Dilshod qizi

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani

MMTBga qarashli 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Tel: +998979050820

e-pochta:bibixonimnabijonova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar "Tabiiy fan" kursida "Tuproqda yashovchi jonzoqlar" mavzusini 5E ta'lim modeli asosida o'qitishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda 5E modelining qiziqtirish, tadqiq etish, tushuntirish, mustahkamlash va baholash bosqichlari orqali o'quvchilarda tuproq va unda yashovchi tirik organizmlar haqidagi boshlang'ich ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tuproq, tuproqda yashovchi jonzoqlar, 5E ta'lim modeli, boshlang'ich sinf, ekologik tarbiya.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda tuproq va unda yashovchi jonzoqlar haqidagi bilimlar muhim ahamiyatga ega. Tuproq tirik organizmlar yashaydigan murakkab tabiiy muhit bo'lib, u o'simliklarning o'sishi va ekotizim muvozanatini saqlashda asosiy omillardan biridir. Shu sababli mazkur mavzuni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish ta'lim samaradorligini oshiradi.

ASOSIY QISM

1. 5E ta'lim modelining didaktik imkoniyatlari

5E ta'lim modeli o'quvchilarni faol bilish jarayoniga jalb etishga xizmat qiladi. Modelning bosqichlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelib, bilimlarni kuzatish va tajriba asosida o'zlashtirish imkonini beradi.

2. "Tuproqda yashovchi jonzoqlar" mavzusini 5E modeli asosida o'qitish



2.1. Engage – Qiziqtirish bosqichi

Engage – Qiziqtirish bosqichi

Mazkur bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini mavzuga jalb etish va ularda bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish maqsadida vizual va muammoli yondashuvlardan foydalanadi. Jumladan, o'qituvchi tuproq qatlamlari, shuningdek tuproqdan chiqib kelayotgan chuvalchanglar, hasharotlar va boshqa mayda jonzoqlar tasvirlangan rasmlar yoki qisqa videolavhalarni namoyish etadi.



Date: 3rd February-2026



Namoyish jarayonida o'quvchilarga "Tuproq ichida kimlar yashaydi?", "Nima uchun bu jonotlar aynan tuproqda yashaydi?", "Ular tuproqqa qanday foyda keltiradi?" kabi muammoli savollar beriladi. Ushbu savollar o'quvchilarning avvalgi bilim va hayotiy tajribalarini faollashtirishga xizmat qiladi hamda ularni mustaqil fikrlashga undaydi.



Natijada o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish ortadi, muammo qo'yish holati yuzaga keladi va keyingi tadqiqot bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan kognitiv tayyorgarlik shakllanadi. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

2.2. Explore – Tadqiq etish bosqichi

Mazkur bosqichda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, faol tadqiqot faoliyatiga jalb etiladi. Darsning ushbu qismida o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan tuproq namunalari (bog' tuprog'i, nam tuproq, quruq tuproq) tarqatiladi. O'quvchilar lupa yoki oddiy kuzatuv vositalari yordamida tuproq tarkibida uchraydigan chuvalchanglar, mayda hasharotlar va boshqa jonzotlarni kuzatadilar. Agar real kuzatuv imkoniyati bo'lmasa, mos video materiallardan foydalaniladi.

1-bosqich. Kuzatish tajribasi

Date: 3rd February-2026

O'quvchilar tuproq namunasini diqqat bilan ko'zdan kechirib, undagi tirik jonzoqlarning tashqi ko'rinishi, ranggi va harakatlanish usullarini qayd etadilar. Ushbu jarayonda o'quvchilar "Jonivor qanday harakatlanmoqda?", "U tuproq ichida qanday yo'l ochmoqda?" kabi savollarga javob izlaydilar.

2-bosqich. Taqqoslash tajribasi

O'quvchilarga quruq va nam tuproq namunalari berilib, jonzoqlarning qaysi muhitda faolroq harakat qilishi kuzatiladi. Natijalar asosida o'quvchilar tuproq namligi jonzoqlar hayotiga ta'sir etishini aniqlaydilar.

3-bosqich. Harakatni aniqlash tajribasi

Tuproq yuzasiga yengilgina yorug'lik tushiriladi yoki tuproq ehtiyotkorlik bilan aralashtiriladi. O'quvchilar jonzoqlarning tashqi ta'sirlarga qanday munosabat bildirishini kuzatib, ularning yashash muhitiga moslashganligini anglaydilar.

4-bosqich. Natijalarni qayd etish

Har bir guruh kuzatish natijalarini rasm chizish, qisqa yozuvlar yoki belgilar orqali qayd etadi. Bu faoliyat o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ilmiy kuzatuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu bosqichda o'qituvchi bevosita ma'lumot bermaydi, balki yo'naltiruvchi savollar orqali o'quvchilarning mustaqil xulosaga kelishiga yordam beradi. Natijada o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyati shakllanadi va keyingi **Explain – Tushuntirish** bosqichi uchun mustahkam asos yaratiladi.

Explore – Tadqiq etish bosqichi uchun tajribalar jadvali

№	Tajriba nomi	Kerakli jihozlar	Tajriba bajarilish tartibi	O'quvchi faoliyati	Kutilayotgan natija
1	Tuproqni kuzatish tajribasi	Tuproq namunasi, lupa, idish	O'quvchilar tuproqni diqqat bilan ko'zdan kechirib, undagi jonzoqlarni aniqlaydi	Kuzatadi, rasm chizadi, qayd qiladi	Tuproqda tirik jonzoqlar mavjudligini anglaydi
2	Quruq va nam tuproqni taqqoslash	Quruq tuproq, nam tuproq, idishlar	Tuproq namunalari taqqoslanadi, jonzoqlarning harakati kuzatiladi	Solishtiradi, xulosa chiqaradi	Jonzoqlar nam tuproqda faolroq bo'lishini tushunadi
3	Harakatni aniqlash tajribasi	Yorug'lik manbai, tuproq	Tuproq yuzasiga yorug'lik tushiriladi yoki yengil aralashtiriladi	Harakatni kuzatadi	Jonzoqlarning tashqi ta'sirga munosabatini anglaydi
4	Yashash muhitiga moslashuv	Tuproq, rasmi kartochkalar	Tuproq osti muhitining ahamiyati muhokama qilinadi	Savollarga javob beradi	Tuproq jonzoqlar uchun qulay muhit ekanini tushunadi
5	Natijalarni qayd etish	Daftar, rangli qalam	Kuzatish natijalari yozma yoki rasm orqali ifodalanadi	Qayd qiladi, taqdim etadi	Ilmiy kuzatuv ko'nikmasi shakllanadi

2.3. Explain – Tushuntirish bosqichi

Date: 3rd February-2026

O'quvchilar kuzatish natijalarini izohlaydi. O'quvchilarning aytib o'tmagan mavzuning qismlarini o'zi to'ldiradi. O'qituvchi tuproqda yashovchi jonzorlar (chuvalchanglar, qo'ng'izlar, chumolilar) tuproqni yumshatishi, havo va suv o'tkazuvchanligini oshirishi haqida ilmiy tushunchalarni beradi.

2.4. Elaborate – Mustahkamlash bosqichi

Bu bosqichda o'quvchilarga amaliy topshiriqlar beriladi. Masalan, "Agar tuproqda jonzorlar bo'lmasa, nima bo'ladi?" kabi savollar orqali sabab-oqibat aloqalari tahlil qilinadi. O'quvchilar bilimlarini kundalik hayot bilan bog'laydi.

2.5. Evaluate – Baholash bosqichi

TUPROQDA YASHOVCHI JONZOTLARNI O'RGANAMIZ!

1. Rasmlarni to'g'ri tartibda joylashtiring.

► Tuproqdagi jonzorlar paydo bo'lish tartibini tartibga soling.

1 → 2 → 3 → 4

O'zini baholang!

😊 Juda yaxshi 😊 Yaxhi
😞 Yana o'rganaman

2. Test savollariga javob bering.

• Qaysi jonivor tuproqda yashaydi?

A) Chuvalchang B) Qush C) Baliq

• Tuproqda yashovchi jonzorlar nima qiladi?

A) Daraxtni kesadi B) Tuproqni yumshatadi C) Suvda suzadi

Bilasizmi? Jonzorlar tuproqni yumshatib, o'simliklarga yordam beradi!

TUPROQDA YASHOVCHI JONZOTLARNI O'RGANAMIZ!

1. Tuproqdagi to'g'ri tartibda joylashtiring.

► Rasmga diqqat bilan qarab, tuproqda yashovchi jonzorlarni belgilang.

2. Test savollariga javob bering.

A) Chipslar B) Daraxt A) Taam C) Sabzi

Bilasizmi? Tuproqdagi foydali jonzorlar o'simliklarga yordam beradi!

TUPROQDA YASHOVCHI JONZOTLARNI O'RGANAMIZ!

1. Tuproqdagi foydali jonzorlarni tanlang va chizing.

• Tuproqni nima ifloslantiradi?

A) Chipslar B) Daraxt C) Sabzi D) Fly

• Tuproqda jonzorlarni qandag asrash kerak?

A) Tuproqda o'ynash kerak B) Chiqindi yo'qotish kerak C) Osimliklarni sugorish kerak

O'zini baholang!

😊 Juda yaxshi 😊 Yaxhi 😞 Yana o'rganaman

Bilasizmi? Bizga tuproqdagi jonzorlar foydali, shuning uchun ularga etiborli bo'lishimte

Date: 3rd February-2026

Baholash shakllari

- Kuzatish jarayonini baholash
- Og‘zaki savol-javob
- Rasm va yozma qaydlarni tahlil qilish
- O‘z-o‘zini va guruhni baholash

Baholash mezonlari jadvali

№	Baholanadigan ko‘nikma	Yuqori daraja (3 ball)	O‘rta daraja (2 ball)	Boshlang‘ich daraja (1 ball)
1	Kuzatish ko‘nikmasi	Jonzotlarni aniq kuzatib, to‘liq tavsiflay oladi	Kuzatadi, ammo tavsifi qisman	Kuzatishda qiynaladi
2	Tadqiqotda ishtirok	Guruh ishida faol, tashabbus ko‘rsatadi	Guruh ishida qatnashadi	Faolligi past
3	Natijani qayd etish	Rasm yoki yozma qayd aniq va tushunarli	Qayd mavjud, ammo kamchiliklar bor	Qayd deyarli yo‘q
4	Tushuntirish ko‘nikmasi	Tuproq va jonzoqlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlaydi	Qisman tushuntira oladi	Izohlashda qiynaladi
5	Ekologik munosabat	Tabiatga ehtiyotkorlikni anglaydi va ifodalaydi	Umumiy tushunchaga ega	Tushuncha shakllanmagan

Maksimal ball: 15 ball

O‘z-o‘zini baholash uchun savollar (o‘quvchilar uchun)

- Men tuproqdagi jonzoqlarni diqqat bilan kuzatdimmi?
- Guruhimga qanday yordam berdim?
- Bugun nimani bilib oldim?

Baholashning pedagogik ahamiyati

Evaluate bosqichida amalga oshiriladigan baholash jarayoni o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning kuzatuvchanlik, muloqot va ekologik ong kabi kompetensiyalarini ham aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv baholashning rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Mavzuning ekologik va tarbiyaviy ahamiyati

“Tuproqda yashovchi jonzoqlar” mavzusi orqali o‘quvchilarda:

- tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat;
- tirik organizmlarni asrash;
- ekologik muvozanat tushunchalari

shakllanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, “Tuproqda yashovchi jonzoqlar” mavzusini 5E ta’lim modeli asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ilmiy tafakkur va ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni samarali o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bybee R.W. *The BSCS 5E Instructional Model*.

Date: 3rd February-2026

2. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent.
3. Ekologiya asoslari. – Toshkent.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

